

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



**QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH
TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI**



“KOSTYUM KOMPOZITSIYASI”

fanidan 5320900 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash texnologiyasi
(tikuv buyumlari) yo‘nalishi talabalari uchun laboratoriya ishini bajarish bo‘yicha

USLUBIY KO‘RSATMA

Guliston-2021 y.

5320900 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash texnologiyasi (tikuv buyumlari) yo‘nalishi talabalari uchun “Kostyum kompozitsiyasi” fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma.

Guliston, GulDU 2021 yil, bet.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash texnologiyasi (tikuv buyumlari) yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda “Kostyum kompozitsiyasi” fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

Uslubiy ko‘rsatma GulDU o‘quv metodik kengashining 2021 yildagi - sonli bayonnomasi qaroriga binoan nashr qilishga tavsiya etildi.

Tuzuvchi: R.R.Islamova - “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyalari” kafedrasida o‘qituvchisi

Taqrizchilar: Nuriyev.K - “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyalari” kafedrasida o‘qituvchisi

GulDU o‘quv-uslubiy Kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

“ _____ ” 2021 yil _____-sonli bayonnomasi

KIRISH

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida uzluksiz ta’limning mazmuniy hamda tashkiliy rivojlanishiga doir strategik yo‘nalishga asoslangan holda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash aniq belgilangan. Unga ko‘ra ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga moslash, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish kabi vazifalarni hal etilishida malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasi o‘z ifodasini topgan.

Insonlarning zamonaviy va sifatli kiyimga bo‘lgan ehtiyojining doimiy o‘sib borishi korxonalar tomonidan ularning assortimentini ko‘paytirish va yaxshilash, sifatini oshirishni talab etadi. Respublikamizdagi tikuvchilik korxonalari, qo‘shma korxonalar va yakka buyurtma asosidagi tikuv korxonalari ishlab chiqaradigan mahsulotlari aholining kiyimga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari zamonaviy modellarni tayyorlashda yangi kam operatsiyali texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarishda eng yangi texnika va texnologiyalarni qo‘llash, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishni davom ettirish, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish yo‘lidan borish iqtisodiyotimizning yuksalishiga muhim omil bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o‘rta maxsus ta’lim pedagoglaridan ishlab chiqarish korxonalari uchun amaliy malaka ko‘nikmalariga ega bo‘lgan kadrlarni yetishtirib berish vazifasini talab etadi.

Fanni o‘qitishdan maqsadi bo‘lajak mutaxassisda obrazli-konstruktiv tafakkumi tug‘dirish, o‘z ijodiy faoliyatini o‘stirish, kostyumning tuzilishidagi asosiy qonuniyatlar va qoidalar bilan tanishish hamda ularni yangi modeliar yaratishda tadbqiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarni nazariy bilimlar, kreativ fikrlash, ko‘rish va xis etish ko‘nikmalarini rivojlantirish, amaliy ko‘nikmalar, badiiy loyihalash jarayoniga ijodiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.

Kiyim ishlab chiqarishga mo‘ljallab loyihalashda fan, texnika va amaliy san’atning eng ilg‘or texnologiyalari va yutuqlaridan maksimal foydalanish, optimal konstruktiv yechimlarni tanlash muhimdir. Sanoatda ishlab chiqarish uchun yangi loyihalananayotgan buyumlar qulay konstruktiv echimga ega bo‘lishi, iste’molchilarning turli qatlamlari talablariga javob berish bilan bir qatorda korxonada yuqori rentabellikni ta’minlay olishi zarur. Shuning uchun “Kostyum kompozitsiyasi” fanini o‘rganish mobaynida talabalar sanoatda ishlab chiqarishga mo‘ljallangan kiyim yangi modellarini loyihalash asoslarini, ularni tikuv jarayoniga qo‘llash uchun konstruktorlik hujjatlarining tarkibi va mazmuni bilan tanishish, kiyim loyihalash konstruktorlik xujjatlarini rasmiylashtirish qoidalarini o‘rganish, loyihalananayotgan kiyimlarning yuqori sifatini ta’minlash va ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, aholining ehtiyojlarini shinam, zamonaviy, qulay kiyimlar bilan qondirish bo‘yicha masalalarni ijodiy va texnik asoslangan holda yechishni o‘rganadilar.

1-LABORATORIYA ISHI.

Mavzu:Turli plastik xususiyatli materiallardan shakl elementlarini hosil qilish.

Ish maqsadi:Eskizlarni bajarish va tasvirlashning turli grafik vositalarni kostyum kompozitsiyasida qo'llash va turli fakturali yuzalarni yaratish usullarini o'rganish.

Ish mazmuni:

1.1Grafikada va turli materiallardan fakturali yuzalarni yaratish usullarini o'rganish

1.2.Maket materiallardan manekenda hajmiy-fazoviy shakllarni xosil qilish

Ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: Mavzuga oid plakatlar, kompozitsiya bo'yicha kitoblar va o'quv qo'llanmalar, turli fakturali materiallar namunalari.

Dars o'quv qurollari: Eskizlarini chizish uchun zarur bo'lgan qurollar – A3 va A4 formatidagi qog'oz, turli qattiqlikdagi qalamlar, akvarel, guash, bo'yoqlar, rangli siyoxlar, tush, rangli qalamlar, perolar, mo'yqalam, o'chirg'ich. gubka va boshqa yordamchi va tasvir etish materiallari.

USLUBIY KO'RSATMA

Fakturali yuzalarni yaratish – tasvirlash vositalar sohasidagi eng qiziqarlilaridan biri. Faktura - bu material yuzasining tuzilishini ifodalovchi xususiyatidir. Masalan, gazlama fakturasi, qog'oz fakturasi va h.k. Materiallar silliq, g'adir-budir, yaltiroq, hira, tukli va h.k. fakturali bo'lishi mumkin. Hosila materiallar fakturasining xarakteri matoni ishlab chiqarilgan usuli bilan bog'liq (to'qimachilik, to'r to'qishda va b.).

1. Ishning birinchi bandida materiallar turli fakturalari grafik eskizlari bajariladi: chit, shoyi, jins matosi, mo'yna, charm va b.q. Fakturali yuzalarni yaratish usullari xilma xil. Grafikada ishlatiladigan oddiy usullaridan biri – bosma. Turli fakturalar misoli sifatida gubka (rezinali yoki parolon, penoplast, mochalka va h.k.), tabiiy va suniy charm, velvet, mo'yna, gipyur, to'rlar, g'ijimlangan qog'oz, qoliplar va shtamplar bosmalari, xatto barmoq izlari ham ma'lum bir fakturani hosil qilishi mumkin.

Bosma uchun tanlangan materialga bo'yoq qoplanadi va qog'ozga izi tushuriladi. Faktura effekti bunda qanchalik bo'yoq suv bilan aralashirganligiga va bo'yoqlar qatlami soniga bog'liq bo'ladi.

«Enkaustika» texnikasi (yunon. «encau» - kuydirish) – sham yoradamida tasvirlash usuli. Dastlab qog'oz yuzasini eritilgan sham bilan qoplanadi. Keyin sham bilan qoplangan yuzaga bo'yoq ustiga yopiladi. Bo'yoq yaxshi to'shish uchun unga kir sovun qo'shiladi. Bundan keyin igna, skalpel yoki boshqa moslamalar yordamida tasvir q'yiladi.

«Ho‘l» texnikasi – tampon yordamida qog‘oz namlanadi va qog‘ozning namlangan yuzasiga rasm tushuriladi.

«Monotipiya» - ma’lum siliq yuzadan (metall, oyna, shisha, chinni) botirib olingan bosma turi. Siliq yuzaga yog‘li bo‘yoq qoplanadi, keyin uni ustiga qog‘ozni qo‘yib, kerakli ma’lum joylarda bostirib tasvir olinadi.

«Kopirka» qog‘oz texnikasi – kopirka qog‘ozini g‘ijimlab qog‘ozga qo‘yiladi va ustidan dazmollanadi.

«Applikatsiya» texnikasi – jurnallar, rangli qog‘oz va turli eskizlardan har xil shakllar kesib olinadi va qog‘ozga yopishtiriladi. Applikatsiyani mustaqil ravishda yoki boshqa usullar bilan qo‘shib ishlatish mumkin.

2. Topshiriqning ikkinchi bandida yuqorida yaratilgan faktura yuzalarini qo‘llab 5-6 kiyim eskizlari seriyasi ishlab chiqiladi. Bitta eskizda uchtdan kam bo‘lmagan holda bir biriga moslashgan faktura turlari birlashtiriladi. Ish jarayonida qo‘llanilgan fakturaning masshtabi va ritmini o‘zgartirish mumkin. Bundan tashqari eskizda uyg‘unlashgan ranglarni qo‘llash lozim. Kiyim eskizlarini ishlab chiqishda tabiiy materialarni eng aniq ifodalangan fakturalar va modellarda to‘g‘ri ishlatilishiga ahamiyat berish kerak.

Ishning bajarish tartibi:

1. Yuqorida keltirilgan grafik vositalarni qo‘llab turli fakturali yuzalar yaratiladi. Topshiriq rangda bajariladi. Bo‘yoqlardan xususiyatlariga ko‘ra foydalaniladi.
2. Ushbu fakturalarni qo‘llab 4-5 ta model eskizlari chiziladi (dastlab qalamda, o‘qituvchi maslahatidan so‘ng rangda bajariladi).
3. Eskizlarni tugallangan kompozitsiyasi ishlab chiqish.

Topshiriq shakli.

Talabalar eskizlarni A4 formatda rasmiylashtiradi. Unda turli fakturali yuzalardan yaratilgan eskizlar ko‘rsatiladi. (1-rasm)

Nazorat shakli

Bilimlarni eskizni sifatiga, grafik vositalarni qo‘llab va ishni sifatli bajarishini inobatga olgan holda baholanadi.



1-rasm

2-LABORATORIYA ISHI.

Mavzu: Kompozitsion shakllantirish va kostyum proporsiyalarini o'rganish.

Ish maqsadi: Kompozitsion shakllantirish turli usullari bilan tanishish, odamning yoshi va qomatini turli tuzilishlarini inobatga olgan holda siluetlarini tavsiya etish va uni kiyimni modellashtirishdagi ahamiyatini o'rganish.

Ish mazmuni:

- 2.1 Odam qomatini (model) proporsiyalarini qurish
- 2.2 Turli tana tuzilishiga moslab kiyim siluetini ishlab chiqish
- 2.3 Kiyimdagi konstruktiv - dekorativ chiziqlar yordamida shaklni xosil qilish

Ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: Mavzuga oid plakatlar, kompozitsiya bo'yicha kitoblar va o'quv qo'llanmalar, moda jurnallari, eskizlar chizish uchun A4 formatdagi qog'oz, tush, gelli ruchka va mo'yqalam.

Dars o'quv qurollari: Eskizlarini chizish uchun zarur bo'lgan qurollar – A3 va A4 formatidagi qog'oz, turli qattqlikdagi qalamlar, akvarel, guash, bo'yoqlar, rangli siyoxlar, tush, rangli qalamlar, perolar, mo'yqalam, flomaster va ruchkalar, o'chirg'ich va boshqa yordamchi va tasvir etish materiallari.

USLUBIY KO'RSATMA

Buyumning tashqi ko'rinishini va chegarasini ifodalaydigan geometrik mohiyat – shakl deb ataladi. Shakl (lot. forma) – tashqi ko'rinish, chegara.

Kostyum shaklini quyidagi hususiyatlar ifodalaydi: shaklning geometrik turi, uning gajmdorlik darajasi, silueti, chiziqlari; shaklning katta-kichikligi; shaklning vazni.

Siluet (frants. silhouette, XVII asda Frantsiya moliya vaziri markiz Eten de Siluettening yon tomondan qiyofasi soyali proektsiyasida kulgili qilib tasvirlangan):

Buyumning soyasiga o'xshash tasviri;

Buyumlarni grafika texnikasi usulida bir tonli yassi tasvirlash. Odatda siluet tush bilan tasvirlanadi;

Modada kostyumning tashqi shakli, xajmiy shaklining shartli tasviri.

Siluet ma'lum davr mobaynida modada yuz bergan o'zgarishlarni umumiy tarzda aniqlash imkonini beradi.

Siluet bu- tekislikdagi shaklning eng ifodali proektsiyasidir. Ko'pincha siluet kiyimning old ko'rinishini aks ettiradi.

Geometrik shakllarni va ularning qatorida har xil kiyim siluetlarining jo'shqin tomoni bilan odamga ta'sirini kostyum kompozitsiyasini yaratishda inobatga olish lozim.

Siluetning bu xususiyati kiyim nimaga mo'ljallangani, odam qomatining tuzilishiga, yoshiga va jinsiga ko'ra e'tiborga olinadi.

Masalan, kundalik kiyimda asosan oddiy, turg'un, vazmin siluetlar tavsiya etiladi; bashang kiyimlarda esa - dekorativ dinamik, nosimmetrik, murakkab siluetlar qo'llanadi; bolalar kiyimida – oddiy, turg'un siluetlar; yosh ayollar kiyimida har xil siluetlar; qari ayollar kiyimida – sipo, turg'un, oddiy siluetlar; erkaklar kiyimida – asosan to'g'riburchak silueti, ayollar kiyimida barcha siluetlar qo'llanadi.

Qomat tuzilishiga ko'ra ham har xil siluetlar tavsiya etiladi. Masalan, figurani balandroq ko'rsatish uchun kiyimning dinamikasi geometrik shakl va uning nisbatlari yordamida erishish mumkin. Shu jumladan figurani siluet yordamida ozg'inroq yoki to'liqroq ko'rsatish mumkin.

Chiziq bu- rassomning eng ko'p qo'lladigan tasviriy tilining elementidir. Uning yordamida shakl va tekisliklarning chegaralari belgilanadi. Chiziq faqat shaklning chegarasinigina aniqlamasdan, rassomning his tuyg'ularini aks ettiradi.

Chiziqning odamga emosional ta'siri ularning yo'nalishiga ham bog'liq. Agar turli chiziqning odamga ta'sirini solishtirilsa, ularning har xilligini yaqqol sezish mumkin:

- gorizontal chiziq – turg'unlik;
- vertikal chiziq - tepaga intilish;
- qiya chiziq – turg'un emaslik, ag'darilish;
- siniq chiziq - o'zgaruvchan harakat, tebranish;
- spiral chiziq - aylanish.

Kostyumda funksiyasiga ko'ra chiziqlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Siluet chiziqlari. Siluet chiziqlari buyumni chegaralovchi chiziqlardir. Shakl geometrik turi bo'yicha to'g'ri chiziqli yoki egri chiziqli bo'ladi. Bu yuzalar silliq yoki siniq bo'lishi mumkin. Siniq yuzani taxlamalar, drapirovkalar, burmalar va boshqalar xosil qiladi.

2. Konstruktiv chiziq. Konstruktiv chiziq faqat buyumni shakllantiuvchi chiziqdir. Ularga vitochkalar, elka, yon, eng o'tkazadigan choklar kiradi.

3. Konstruktiv-dekorativ chiziqlar. Konstruktiv –dekorativ chiziqlar shakllantirish va dekorativ funktsiyani bajaradigan chiziqlardir. Ularga releflar, taxlamalar, drapirovkalar, koketkalar kiradi.

4. Dekorativ chiziqlar. Dekorativ chiziqlar faqat estetik funktsiyalarni bajaradigan chiziqlardir. Ularga kashta, to‘r, bezak detallari, tasma, furnituralar kiradi.

Ishning bajarish tartibi:

1. Turli qomatlar tuzilishini tahlil etish.

2. Muayyan turdagi ayollar yoki erkaklar qomatning tashqi ko‘rinishi chiziladi (masalan, o‘rta yoshli, II to‘lalik guruhiga mansub). Figura frontal tekisligida, to‘g‘ri, tovonlari birlashtirilagn holda chizilishi kerak.

3. Tayyorlangan figurani 10 ta nusxada ko‘paytiriladi.

4. Siluetda modellarning uzunligini bir xil masofada saqlagan holda, asosiy va yordamchi chiziqlarning joylashishini va qiymatini o‘zgartirib kiyim silueti ishlab chiqiladi.

5. Ishlab chiqilgan siluetlar tush bilan bo‘yaladi. Oyoq va qo‘llarning ko‘rinadigan joylari gelli ruchkada konturi yurg‘iziladi.

6. Berilgan siluet bo‘yicha konstruktiv – dekorativ va dekorativ chiziqlarni qo‘llab bitta assortimentdagi ayollar kiyimi modeli ishlab chiqiladi.

Topshiriq shakli.


Talabalar eskizlarni bir xil masshtab va formatda rasmiylashtiradi. Unda modellar tush bilan bo‘yaladi.

Nazorat shakli

Bilimlarni ishni sifatli bajarishini va muayyan qomat tuzilishi va yosh guruhi uchun to‘g‘ri tanlanganligi inobatga olgan holda baholanadi.



2 -rasm



3-rasm

3-LABORATORIYA ISHI.

Mavzu:Kompozitsion xususiyatlarini qo‘llab yangi model eskizlarini ishlab chiqish.

Ish maqsadi: Kostyum kompozitsiyasini yaratishda rang xususiyatlarini va rang birikmalarini uyg‘unlik tamoyillarini o‘rganish.

Ish mazmuni:

3.1 Kompozitsion markaz o‘rni.

3.2 Kostyum kompozitsiyasida simmetriya va asimmetriyani qo‘llash

3.3 Metrik va ritmik tuzilishlardan foydalanish

Ko‘rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: Mavzuga oid plakatlar, kompozitsiya bo‘yicha kitoblar va o‘quv qo‘llanmalar, A4 formatdagi qog‘oz, turli rangdagi bo‘yoqlar (akvarel, guash) va mo‘yqalam.

Dars o‘quv qurollari: Eskizlarini chizish uchun zarur bo‘lgan qurollar – A3 va A4 formatidagi qog‘oz, turli qattiqlikdagi qalamlar, akvarel, guash, bo‘yoqlar, rangli siyoxlar, tush, rangli qalamlar, perolar, mo‘yqalam, flomaster va ruchkalar, o‘chirg‘ich va boshqa yordamchi va tasvir etish materiallari.

USLUBIY KO'RSATMA

Rang buyumning eng muhim informatsion sifatlaridan biri hisoblanadi. Bizni O'rab turgan tashqi muhit - rangli olami, tabiatda rangsiz mavjudod, o'simlik va buyum yo'q. Odam yaratgan asarlarida ham rangsiz buyumlar yo'q.

Rang fizik va psixologik xususiyatlariga ko'ra turli ramzlarga egadir. Azal-azaldan rang hayot va mamot ramzi, quvonch va hafalik, ijtimoiy belgi bo'lgan.

(1-jadval)

Rang ramzlariga tarixning turli davrida turlicha munosabatda bo'lishgan. Davlat tuzumi soddadil bo'lgan mamlakat aholisi va qasrlarda aniq yorqin rangli liboslar kiyishgan. Murakkabroq pog'onali davlat tuzumi hukm surgan joyda ranglar ochroq va yorqin bo'lmagan. Ranglar tuzilishi murakkab va nozikdir.

Insonning psixologik va fiziologik holatida o'zaro aloqasi

1- jadval

№	Rang	Ko'rish	Fiziologik	Tasavvur	Psixologik
1	Qizil	Aniq, ravshan, yorqin	Issiq, hayajon	Isyon, yong'in, shovqin	Qaynoq, ehtiros, g'azab
2	Olovrang qizg'ish	Ravshan, ajrab turadigan	Kayifiyat buzilishi, hayajon	Quyosh, tantana	Qo'pollik, kuch quvvat
3	Olovrang	Ravshan, ajralib turuvchi	Ziddiyat	Quyosh botishi	Notinchlik, keskinlik
4	Sarg'ish - olovrang	ajralib turmoq	Qizg'ish	Quyosh chiqishi, oltin	Baht, hayot, hosildorlik
5	Sariq	Yaltiroq	Betoblik	Nur, limon	Quvnoqlik, hursandlik
6	Sarg'ish yashil	Yaltiroq	Osoyishtalik	Bahor, yosh navdalar	Umid, zaiflik
7	Ko'k	Hayoliy	Salqin	Uzoqlik	Tinchlik, osoyishtalik
8	Siyohrang	Zich havo, oqshom	Iliq havo	Binafsha	Tantana, motam
9	Qirmizi	Shirali	Ehtiros	Saltanat	Dinamik, dabdabalik
10	Yashil	Noturg'un neytral	Osoyishta soflik	O'simlik, dengiz	Tinchlik, turg'unlik

Kostyum kompozitsiyasini yaratishda ranglarning bir-biriga uyg'unligi katta ahamiyatga ega. Xromatik ranglarga spektr ranglari kiradi (qizil, to'q sariq, sariq, yashil, moviy, ko'k, binafsha va boshqa ranglar). Xromatik ranglar birikmasi rang doirasi asosida tuziladi.

Xromatik ranglarnin ikki rangli uyg'unligi quyidagi printsiplarda tuziladi:

- o'xshash ranglar - bir xil asosiy ranglardan xosil bo'lgan, ya'ni rang doirasining bir choragidagi ranglar birikmasidir.

- kontrast ranglar - xar xil asosiy ranglardan xosil bo'lgan, ya'ni rang doirasining qarama-qarshi choragidagi ranglar birikmasidir.

- o'xshash - kontrast ranglar – bitta asosiy va ikkita kontrast ranglardan xosil bo'lgan, ya'ni rang doirasining yonma yon choragidagi ranglar birikmasidir.

Xromatik ranglarning uch rangli monandligi uchburchak printsiplarda tuziladi:

teng yonli uchburchak: ikki o'xshash ranglar va uchinchi asosiy kontrast rang;

teng yonli uchburchak: ikki o'xshash-kontrast rang va umumiy asosiy ranglar;

teng yonli to'g'ri uchburchak: ikki o'xshash kontrast va kontrast ranglar;

teng yonli to'g'ri uchburchak: ikki o'xshash ranglar va kontrast rang.

Xromatik ranglarning to'rt rangli birikmasi to'rtburchak printsiplarda tuziladi:

- o'xshash-kontrast ranglar birikmasi.

Axromatik ranglarga qora, oq va kul rang kiradi. Axromatik qator oq rangdan qora rangga qadar tuziladi. Oraliq ranglar turli oqishlikdagi kulranglar, ya'ni ochdan to'qqacha bo'ladi. Noxromatik ranglar birikmasi noxromatik qator asosida tuziladi.

Ikki rangli noxromatik ranglar birikmasi quyidagi printsiplarda tuziladi:

kontrast birikmalari: noxromatik qatorda bir-biridan uzoq joylashgan ranglar birikmasi;

nyuans birikmalari: noxromatik qatorda yaqin joylashgan rang birikmalari;

Uch rangli noxromatik ranglar birikmasi har xil oqishlikka ega (och, o'rta va to'q) va turli miqdorda olingan ranglar birikmasidan tuziladi:

- ko'p och rang va kam to'q va o'rta rang;

- ko'p o'rta rang, kam to'q va och rang;

- ko'p to'q rang, kam o'rta va och rang;

- och, o'rta va to'q ranglar teng birikmasi.

Monoxrom ranglar birikmasi noxromatik ranglar birikmasi singari monoxrom qatori asosida tuziladi.

Xromatik va noxromatik ranglar birikmalari kostyum kompozitsiyasida ko'p uchraydi va ifodali bo'ladi. Oq rang sof xromatik rang tusini kuchaytiradi; oq rang bilan pastel ranglar birikmasi uyg'un, soflik va bashanglik hissini yuzaga keltiradi (oq bilan havorang, oq va pushti rang).



Kolleksiya (lot. sollektio - to‘plam) – ilmiy, tarixiy yoki badiiy qiziqishni ifodalaydigan, o‘xshash buyumlarni tizimga solingan to‘plamidir. Liboslar kolleksiyasi quyidagi birlikni barpo etadigan qar xil mo‘ljal uchun modellar seriyasi: muallif kontseptsiyasi, siymo, qo‘llangan materiallar, ranglar yechimi, shakl, bazaviy konstruksiyalar, uslubiy yechimi va h.k. har qanday kolleksiyada uning yaxlitligi, markaziy qoyasi muhim xossa bo‘lib xisoblanadi. Kolleksiya turli elementlardan trashkil topadi, ya’ni, bu ansambllar, komplektlar, alohida buyumlar, qo‘shimchalar va bezaklar bo‘lishi mumkin.

Yakunlovchi kompozitsiyada 3 tadan 7 gacha bo‘lgan tugallangan stilistik qatordagi eskizlardan iborat bo‘ladi. Tugallangan eskizda asosiy e’tiborni badiiy siymoni izlashga qaratish kerak. Birinchi navbatda bu figurani uslublashtirish, ya’ni figuraning plastikasini va turish xolatini butunligidir. So‘ng tasvirni bajarish uchun grafik vositalarini, ishlatiladigan materiallarni va texnikani tanlash kerak.

Ishning bajarish tartibi:

1. Tanlangan ijodiy manbaa transformatsiyasiga turli kompozitsion vositalarni qo‘llab stilistik qatorni bajarish
2. Stilistik qatordan modelning eng ifodali varianti tanlanadi.
3. Siymo yaratish uchun tasviriy usullarni izlash
4. Yangi qog‘ozda figura uslublashtiriladi va kolleksiya modellaring shakli va konstruktiv-dekoartiv yechimi qalam bilan chiziladi.
5. Kolleksiya modellari eskizlari planshetda ifodali joylashtiriladi va yakunlovchi kompozitsiyasi bajariladi.



4-rasm

Topshiriq shakli.

Talabalar eskizlarni turli xil rang birikmalarini qoʻllagan xolda bajaradilar.

Nazorat shakli

Bilimlar ishni aniq va sifatli bajarishini inobatga olgan holda baholanadi.

4-LABORATORIYA ISHI.

Mavzu: Turli kompozitsion vositalarini qoʻllab liboslar toʻplamini yaratish.

Ish maqsadi: Tabiiy shakllar tasvirlarini shakl chizmalariga oʻzgartirishni oʻrgatish, turli oʻsimliklar murakkab shakllarini oddiy shakl va faktura tuzulishlariga keltirishni oʻrganish.

Ish mazmuni:

4.1 Ranglar doirasi va xromatik qatori asosida garmonik rang birikmalarini ishlab chiqish.

4.2 Kontrast, nyuans va oʻxshashlik

4.3 Liboslar toʻplami eskizlarini planshetda bajarish

Koʻrgazmali qurollar va tarqatma materiallar: Mavzuga oid plakatlar, kompozitsiya boʻyicha kitoblar va oʻquv qoʻllanmalar, A4 formatdagi qogʻoz, turli rangdagi boʻyoqlar (akvarel, guash) va moʻyqalam.

Dars oʻquv qurollari: Eskizlarini chizish uchun zarur boʻlgan qurollar – A3 va A4 formatidagi qogʻoz, turli qattiqlikdagi qalamlar, akvarel, guash, boʻyoqlar, rangli siyoxlar, tush, rangli qalamlar, perolar, moʻyqalam, flomaster va ruchkalar, oʻchirgʻich va boshqa yordamchi va tasvir etish materiallari.

USLUBIY KOʻRSATMA

Dizayner oʻz ijodida tabiiy tasvirni shaklini va faturalar yordamida libos koʻrinishiga oʻzgartirishni bilishi kerak. Ijodiy manbaani tabiiy tasvirlarni uslublash – bu oddiylashtirish, umumlashtirish. Uslublash maqsadi - turli oʻsimliklar murakkab shakllarini oddiy naqsh tuzulishlariga keltirish. Ijodiy manbaa asosida xosil boʻlgan

elementi sifatida uning ayrim bo‘laklarilari (shakli, fakturasi va h.k) yoki bir necha qismlardan iborat butun kompozitsiyalar bo‘lishi mumkin. Ijodiy manbaa shaklini transformatsiyalashda uning shakli, siluetlar qatorlari va faktura yuzalarini ishlab chiqishda topshiriqning uchinchi bandida ishlab chiqilgan naqsh turi elementlarini o‘zgartirgan holda (ritmlari, yo‘nalishi va masshtablarini biri biriga mos kelishi kerak) bir butun kompozitsiyaga birlashtiriladilar.

Qo‘yilgan masalani bajarish uchun uslublashni quyidagicha bajarish kerak:

O‘simlik tanlangan qismini shaklini tahlil qilib, uni yaqin bo‘lgan geometrik shakl asosida libos siluet qatorini ishlab chiqish kerak. (5-rasm);

Ijodiy manbaa - jonli shakl asosida transformatsiyalashda tanlangan qismini shaklini, siymosini, faktura yuzasini tahlil qilib, unga mos uslub tanlaniladi, tanlanga uslub asosida liboslar to‘plami yaratiladi.(6-rasm);

Ijodiy manbaa –milliy kostyum elementlari asosida transformatsiyalashda tanlangan qismini shaklini, siymosini, faktura yuzasini tahlil qilib, unga mos uslub tanlaniladi, tanlanga uslub asosida liboslar to‘plami yaratiladi.(7-rasm);

Ishning bajarish tartibi:

1. Ijodiy manbaa haqida ma’lumotlar yigilib taxlil qilinadi (o‘simlik, jonli, tarixiy arxitektura inshootlari va milliy kostyum elementlari tanlanadi, tahlil qilinadi va o‘simlik, o‘simlik, jonli, tarixiy arxitektura inshootlari va milliy kostyum elementlarini oddiylashtiriladi va uslublashtiriladi;

2. Ijodiy manbani uslublashtirilgan elementlari yaqin bo‘lgan geometrik shakllarga joylashtiriladi (O‘qituvchi maslahatidan so‘ng);

3. Naqsh elementlari kompozitsion joylashuvini e’tiborga olgan holda tanlangan grafik usulida tasvirlanadi;

4. Siluet qatori va mato fakturasi yuzasi kompozitsion yechimi ishlab chiqiladi;

5. Topshiriqni dastlab qalamda, so‘ng tanlangan grafik usulida bajariladi;

6. Eskizlarni tugallangan kompozitsiyasi ishlab chiqish.

Topshiriq shakli.

Talabalar naqsh qatori va naqsh yuzalarini eskizlarni turli xil texnikani qo‘llagan xolda bajaradilar.

Nazorat shakli

Bilimlar ishni aniq va sifatli bajarishini inobatga olgan holda baholanadi.



5-rasm



6-rasm



7-rasm



5-LABORATORIYA ISHI.

Mavzu:Turli uslubiy yechimdagi liboslar modellarini ishlab chiqish.

Ish maqsadi: Kostyum loyihalash jarayonida ijodiy manbaa sifatida tarixiy va milliy kostyumlardan foydalanib yangi libos yaratish.

Ish mazmuni:

1 Zamonaviy liboslar uslublarining o'ziga xos hususiyatlarini va konstruktiv-dekorativ yechimini o'rganish: klassik, romantik, sport va folklor usublari

2 Ma'lum assortiment bo'yicha muayyan uslubdagi liboslar to'plami kompozitsiyani ishlab chiqish

3 Liboslar yaratishda dekorativ va konstruktiv bezaklar

Ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: Mavzuga oid plakatlar, kompozitsiya bo'yicha kitoblar va o'quv qo'llanmalar, turli fakturali materiallar namunalari.

Dars o'quv qurollari:Jonli shakllarni transformatsiyalashqo'llaniladigan o'quv qurollari – A3 va A4 formatdagi qog'oz, turli qattqlikdagi qalamlar, akvarel, guash, bo'yoqlar, rangli siyoxlar, tush va boshqa yordamchi va tasvir etish materiallari.

USLUBIY KO'RSATMA

Assortimentning turli shakllarini tavsiflaydigan umumiy omil - ularning uslubiy echim turlaridir.

Kiyim shakli- bu uning asosiy qismlari, detallari va bezaklari birikmasdir. Kostyumning ko'rinish taassuroti uning xajmiy shakllarini kompozitsion echimi bilan farqlanadi.

Barcha kostyum shakllarining uslubiy yechimlarini asosiy to'rt guruhga bo'lish mumkin: klassik, sport va romantik, folklor.

Barcha uslublar ham kichik guruhlarga bo'linadi: masalan, klassik uslubga - "Inglizcha", "Minimalizm", "Shanel", "Turizm" yo'nalishlari, sport uslubiga - safari, "denim", "militari", "Dengizcha", folklor uslubiga - kantri, yaponcha, ekzotik, Skandinavcha, sharqiy va b.

Klassik uslubiy echim funktsional va estetik maxsus uyg'unligi bilan tavsiflanadi:

shaklning mantiqiyliqi, oddiyliqi, siluetining aniqliqi, bichimining oddiyliqi;

kostyum proporsiyalarining figura tabiiy proporsiyalariga monandliqi;

kiyimning asosiy chiziqlari figuraning tabiiy kamarlaridan o'tadi;

barcha chiziqlar konstruktiv funktsiyani bajarishi lozim;

kiyim silueti yopishgan, nimyopishgan va to'g'ri;

eng bichimi o'tqazma, yaxlit bichilgan tor;

bezaklar juda kam yoki umuman yo'q;

ranglari oq, qora, kul rang, pastel, odmi;

klassik naqshlar (katak-katak, yo'l-yo'l, no'hat) va boshqa oddiy mayda bosma yoki to'qima naqshlar.

Klassik uslub asta-sekin rivojlanadi, unda an'analar, zamonaviy kostyum yutuqlari bilan qo'shib, uyg'unlikni barpo etadi. Kiyimning umumiy sipoligiga materiallarning

sipoligi bilan erishiladi. Klassik uslub shaklni umumiy sipoligidan tashqari yaxlit va bo‘limlarni plastik uyg‘unligiga ega. Klassik uslub o‘rta va katta yoshni tavsiflaydi, chunki u odamni tashqi ko‘rinishiga, yurish-turishiga, dunyoqarashiga monand.

Sport uslubiy echimi kostyumni dinamikligini, ixchamligini, qulayligini, harakatga halaqit bermasligini va boshqa sportga oid xossalarni namoish etadi. Bu uslubda barcha yoshdagi shaxslar, figura turlari, mo‘ljall uchun kostyum yaratish mumkin.

Sport uslubidagi kostyumni quyidagilar tavsiflaydi:

shaklning erkinligiga alohida e‘tibor beriladi;

siluet erkin to‘g‘riburchak, niyopishgan;

eng bichimi: o‘tqazma, reglan, yaxlit bichilgan va kombinatsiyalashgan;

konstruktiv echim: taxlama, koketka, shlitsa, kesimlar va boshqa shaklga erkinlik beradigan konstruktiv vositalar;

detallar: qoplama detallar, cho‘ntaklar, pogonlar, xlyastik va patlar, belbog‘lar va boshqalar;

bezaklar: bezak choklar, furnitura, trikotaj va boshqalar;

ranglar har xil.

Romantik uslubiy echimidagi kostyumlar asosan yoshlarga mansub.

Bu uslubiy echimni quyidagilar tavsiflaydi: Bu uslubiy echimni quyidagilar tavsiflaydi:

shaklning dekorativligi va hilma xilligi;

murakkab bichim;

konstruktiv chiziqlari yashirilinganligi;

bezaklar hilma- xilligi;

nosimmetrik kompozitsiya;

eng bichimi o‘tqazma va yaxlit bichilgan;

har xil fakturali materiallar va bezaklar birikmalari.

XX asr oxiri- XXI asrda zamonaviy kostyumda uslubiy birikmalar keng qo‘llanilmoqda. Masalan, klassik pidjak, fantazi bluzka, sport uslubidagi shim.

Kolleksiya (lot. sollektio - to‘plam) – ilmiy, tarixiy yoki badiiy qiziqishni ifodalaydigan, o‘xshash buyumlarni tizimga solingan to‘plamidir. Liboslar kolleksiyasi quyidagi birlikni barpo etadigan qar xil mo‘ljall uchun modellar seriyasi: muallif kontseptsiyasi, siymo, qo‘llangan materiallar, ranglar echimi, shakl, bazaviy konstruktsiyalar, uslubiy echimi va h.k. har qanday kolleksiyada uning yaxlitligi, markaziy qoyasi muhim xossa bo‘lib xisoblanadi. Kolleksiya turli elementlardan trashkil topadi, ya‘ni, bu ansambllar, komplektlar, alohida buyumlar, qo‘shimchalar va bezaklar bo‘lishi mumkin.

Yakunlovchi kompozitsiyada 3 tadan 7 gacha bo‘lgan tugallangan stilistik qatordagi eskizlardan iborat bo‘ladi. Tugallangan eskizda asosiy e‘tiborni badiiy siymoni izlashga qaratish kerak. Birinchi navbatda bu figurani uslublashtirish, ya‘ni figuraning plastikasini va turish xolatini butunligidir. So‘ng tasvirni bajarish uchun grafik vositalarini, ishlatiladigan materiallarni va texnikani tanlash kerak.

Kostyumda funktsiyasiga ko‘ra chiziqlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Siluet chiziqlari. Siluet chiziqlari buyumni chegaralovchi chiziqlardir. Shakl geometrik turi bo'yicha to'g'ri chiziqli yoki egri chiziqli bo'ladi. Bu yuzalar silliq yoki siniq bo'lishi mumkin. Siniq yuzani taxlamalar, drapirovkalar, burmalar va boshqalar xosil qiladi.

2. Konstruktiv chiziqlar. Konstruktiv chiziqlar faqat buyumni shakllantiuvchi chiziqlardir. Ularga vitochkalar, elka, yon, eng o'tkazadigan choklar kiradi.

3. Konstruktiv-dekorativ chiziqlar. Konstruktiv –dekorativ chiziqlar shakllantirish va dekorativ funktsiyani bajaradigan chiziqlardir. Ularga releflar, taxlamalar, drapirovkalar, koketkalar kiradi.

4. Dekorativ chiziqlar. Dekorativ chiziqlar faqat estetik funktsiyalarni bajaradigan chiziqlardir. Ularga kashta, to'r, bezak detallari, tasma, furnituralar kiradi.

Ishning bajarish tartibi:

1. Klassik, sport, romantik, folklor uslubdagi ishlab chiqiladigan kiyim assortimentlari bilan tanishish. Manbalar: moda jurnallari, kataloglar, bukletlar.

2. Turli uslubdagi modellarni yaratishda qo'llaniladigan materiallar rasmi va fakturasi xususiyatlari, dekorativ bezak elementlari, siluet shakllari, bichim xususiyatlarini tahlil qilish.

3. Yuqorida qayd etilgan uslublar yo'nalishida model eskizlarini ishlab chiqish.

4. Chizilgan figurani 10 ta nusxada ko'paytiriladi.

5. Berilgan siluet bo'yicha konstruktiv – dekorativ va dekorativ chiziqlarni qo'llab bitta assortimentdagi ayollar kiyimi modeli ishlab chiqiladi.

6. Zamonaviy moda talablarini xisobga olib, bunda modellarning uzunligini va siluetini bir xilligini saqlagan xolda modellar eskizi ishlab chiqiladi

Topshiriq shakli

Barcha eskizlar rangli faktura ishlanmasi bilan bajariladi. Kiyim modellari ansamblda: bosh kiyim, oyoq kiyim va kompozitsion tasavvurni to'liq ko'rsatish uchun qo'shimcha elementlar bilan ko'rsatiladi. Odam obrazi va kostyum xarakteri garmonik birligi aktsentini ko'rsatish uchun fon ishlanmasi bajariladi.

Barcha uslubiy yo'nalishlar bo'yicha 4 tadan kiyim modellari eskizlari ishlab chiqiladi.



8-rasm

Nazorat shakli

Bilimlar ishni aniq va sifatli bajarishini inobatga olgan holda baholanadi.

6-LABORATORIYA ISHI.

Mavzu: Tabiat shakllarini transformatsiyalash usullaridan foydalanib kostyum shakllarini ishlab chiqish.

Ish maqsadi: O‘simlik shakllarini transformatsiyalash usullaridan foydalanib kostyum shakllarini ishlab chiqish.

Jonli shakllarni transformatsiyalash usullaridan foydalanib kostyum shakllarini ishlab chiqish.

Ish mazmuni:

1. Uslublashda o‘simliklar va jonli shakllarni (xayvonot va xashoratlar) grafik tahlili


2. Tabiat shakllar transformatsiyasiga liboslar modellarini yaratish

Ko‘rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: Mavzuga oid plakatlar, kompozitsiya bo‘yicha kitoblar va o‘quv qo‘llanmalar, turli fakturali materiallar namunalari.

Dars o‘quv qurollari: Jonli shakllarni transformatsiyalash qo‘llaniladigan o‘quv qurollari – A3 va A4 formatdagi qog‘oz, turli qattiqlikdagi qalamlar, akvarel, guash, bo‘yoqlar, rangli siyoxlar, tush va boshqa yordamchi va tasvir etish materiallari.

USLUBIY KO'RSATMA

Zardo'zlik san'atining eng rivojlangan ,taraqqiy etgan turi Buxoro zardo'zligidir. Zardo'zlik mahsulotlarini ishlab chiqarish Buxoro shahrida o'zining umumiy markaziga ega, jamiyatning nafis san`at shaydolariga xizmat qiladi. Zardo'zlik uzoq tarixga ega va deyarli barcha sharq mamlakatlarizardo'zlik vatani hisoblanadi. Ilgari zamonda faqat amir saroyidagilarginakiyishga haqqi bo'lgan bo'lsa hozirgi zamonda barcha xoxlovchilar bu san`aturiga mansub buyumlardan foydalana olishadiZardo'zlikni tikish uchun tillarangva kumushrang tusdagi yassilangan tilla va kumush simlardan zariplardan shoyi,ipak iplardan zar, likkak iplardan foydalanishgan. Bulardan tashqari pilakch,nafis zar tugallar, zargarlik taqinchoqlariga o'xshab ketadigan olmos qubbalardeb atalmish bo`rtma naqshlar dur va qimmatbaho toshlardan foydalanishgan.



9- rasm.

Vahiyning o'ziga xos xususiyatlaridan faqat bir nusxasi ko'chirilgan bir xil tasvirlangan ob'ekt Masalan, mushukning rasmini oling. Agar qo'zg'almas tuzilishda rassom to'liq ifodasini topsa, siluetni barcha tafsilotlar bilan takrorlab, hajmini berishi mumkin bo'lsa, unda dekorativ kompozitsiyada rassom mushuklar uchun o'ziga xos xususiyatlarni bir-biridan ajrata oladi va faqatgina ularning soniga yetkazadi. Misol uchun, bu mushukning orqa qismining egri bo'lishi mumkin, bunda san'atkor osonlik bilan bir nechta an'anaviy chiziq larni tortadi, bu raqamlarning barcha tafsilotlarini emas. Yoki u mushukning yuzida joylashgan shakli uchburchak bo'lishi mumkin.

Bu yerda rassom uchburchak ko'rinishida bir nechta bo'yoqlarni qo'yadi va buning natijasida mushukning hissi tahmin qilinadi. Nihoyat, biz mushuk tasvirini tan olishga imkon beruvchi bir nechta xususiyatni ko'ramiz.


Qolganlari, masalan mushuk sochlarini bo'yash, ko'zning batafsil chizish, burunning burunlari - ostutstvovat bo'ladi. Lekin rassom buning aksini qila oladi. Mushukning sochlarini chizishdan o'ting, ko'zlarini batafsil ko'rib chiqing, biroq ayni paytda mushukning jag'i shaklini, orqadagi burun shaklini va boshqalarni e'tiborsiz qoldiring. Yuqorida keltirilgan yondashuv forma va uning uslubini o'zgartirish kabi

uslubning asosi hisoblanadi. Misol uchun, xuddi mushukning yuzi geometrik shakllardan "to'planishi" mumkin. Va uning siluetini mavhum fikrlar, zarbalar, chiziqlar, fikrlar, va hokazolardan yaratishingiz mumkin. Ya'ni rassom rasmni o'zgartiradi. Biroq tasvirlangan ob'ektning tabiati tanib bo'lmaydilar. Rassomlar va dizaynerlar buning asosini ijodiy fikrlashlari bilan izohlashadi.

Stilizatsiyalashning asosiy metodlaridan foydalangan holda, stereotiplarning oldini olishga harakat qilish kerak. Transformatsiyalashning asosiy usullari quyidagilardan iborat: bir siluet yaratish. O'lchagan chiziq ob'ektning shakli ostidagi chiziq. Misol uchun, hayotning kubikli idishi boshqa idishlarning shakliga o'xshamaydigan ma'lum bir shaklga ega.

Rassom bu forma tabiatini sezadi va uni takrorlaydi, lekin allaqachon stiliza va qiyshiq qiyofada. Ya'ni, shakllantirish liniyasi ushbu o'zgarish uchun asos bo'ladi. Muallif bu qatorni geometrik shakllarda, mavhum joylarda va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Transformatsiya va stilizatsiya qilishning yaxshi namunasi - bu belgilar va logotiplarni yaratishdir. Hayvonlarning siluetiga asoslangan belgi namunasi ko'rsataman. Misol uchun, bu sher bo'ladi. Tasvir yaratishda dizayner sherning siluetini xuddi bo'lgani kabi takrorlashi mumkin.



10-rasm

Kostyum kompozitsiyasi qator tushunchalarni o'z ichiga oladi. Lotincha compositio – so'zi to'zish birlashtirish, bog'lash degani bo'ladi. Har qanday san'at asari kabi kostyum ham ma'lum qoidalarga muvofiq ishlatiladigan uning o'ziga xos ifoda vositalari yordamida yaratiladi. Kiyim kompozitsiyasi-kiyim shakli barcha elementlarini uning mazmunini ifoda etadigan birlikni barpo etish vositalari yordamida to'zib chiqish. Kiyimning mazmuni uning nimaga mo'ljallanganligiga qarab belgilanadi. Kiyim shaklining kompozitsiyasi uning mazmunini ochib berishga kelishi kerak.

Ishning bajarish tartibi:

1. Jonli shakllarni transformatsiyalashgrafikada ishlatiladigan usullar haqida adabiyotlar va internet manbaalaridan ma'lumotlar y'igiladi
2. Yuqorida keltirilgan grafik vositalarni qo'llab turli Jonli shakllarni transformatsiyalar yaratiladi.
3. O'simlik shakllarinitransformaciyalash grafikasida ishlatiladigan usullar haqida adabiyotlar va internet manbaalaridan ma'lumotlar yig'iladi
4. Yuqorida keltirilgan grafik vositalarni qo'llab turli O'simlik shakllarini yaratiladi.
5. Bajarilgan ijodiy ishlar rasmiylashtiriladi

Topshiriq shakli.

Talabalar bajargan ijodiy ishlarini A4 formatda rasmiylashtiradi. Unda turli fakturali yuzalar ko'rsatiladi.

Nazorat shakli

Bilimlarni eskizni sifatiga, grafik vositalarni qo'llab va ishni sifatli bajarishini inobatga olgan holda baholanadi.

7- LABORATORIYA ISHI.

Mavzu:Kostyum loyihalash jarayonida ijodiy manbaa sifatida tarixiy va milliy liboslardan foydalanish.

Ish maqsadi: Kostyum loyihalash jarayonida ijodiy manbaa sifatida tarixiy va milliy kostyumlardan foydalanib yangi libos yaratish

Ish mazmuni:

7.1 Ijodiy manbaa tanlash va uning nusha va elementlarini chizish. Ijodiy manbaa transformatsiyalash

7. 2 Ranglar yechimi va badiiy bezash elementlarini (naqsh, rasm) ishlab chiqish

Ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: Mavzuga oid plakatlar, kompozitsiya bo'yicha kitoblar va o'quv qo'llanmalar, turli fakturali materiallar namunalari.

Dars o'quv qurollari:Kostyum loyihalash jarayonida qo'llaniladigan o'quv qurollari – A3 va A4 formatdagi qog'oz, turli qattiqlikdagi qalamlar, akvarel, guash, bo'yoqlar, rangli siyoxlar, tush, rangli qalamlar, perolar, mo'yqalam, o'chirg'ich, gubka, sham, selofan paketlar, ip, va boshqa yordamchi va tasvir etish materiallari.

USLUBIY KO'RSATMA

Kiyimlarda el-elat tarixiga borib taqaladigan an'analar, ijtimoiy munosabatlar, ma'rifiy, din va estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalanadi. Jamiyat turmushi iqtisodiyoti va siyosatida bo'layotgan ayrim o'zgarishlar bilan baravar kiyim shakllari ham o'zgarib boradi,unda xalqning moddiy ahvoli,kishilarning didi,go'zallik

to'g'risidagi ideallari, xo'jalik yuritishning o'ziga xos jihatlari hamda oilaviy turmushning ba'zi tomonlari ham ko'zga yaqol tashlanadi.

Urta Osiyoning katta kismini miloddan avvalgi VI asrda Eron ahmoniylari, ulardan sung miloddan avvalgi 329-327 yillarda Iskandar Zulkarnayn kushinlari bosib olishi ham bu erda kuldorlikning yanada rivvojlanishiga ta'sir etgan. Miloddan avvalgi III sar urtalarida Urta Osiyoning garbiy yirik kuldorlik davlati – Parfiya vujudga kelgan. Ko'pgina yozma manbalarga ko'rau hatto Rim imperiyasining ham havfli rakibiiga aylangan. Urta Osiyoda oramiy, yunon, forsiy yozuvlari keng tarkalgan. Ular moddiy va ma'naviy madaaniyatning keyingi ravnakiga bekiyoss ta'sir kursatdi.

Shu davrga ta'lukli rasmlarda va haykallarda er va unumdorlik hudosi Anahita, otliklar, hayvonlar, hayolik mahluklar shakl-shamoyillarni ko'ramiz. Zardushtiylik kuldorlik ilk feodalizm davrida Urta Osiyoda asosiy diniy e'tikod sifatida keng tarkalgan. Zardushtiylik bu uulkalarda islom dini joriy etilgan ilk davrlarda ham bir necha yillar saklanib kolgan.

«Avesto» nafakat diniy kitob, balki ko'p mamlakatlarning uzoq asrlardagi tarihi, ijtimoiy-iktisodiy hayoti, tili, yozuvi, badiiy madaaniyatini urganishga ham buyuk manbadir. Zardushtiylik mohiyati – ezgulik va yovuzlik (yahshilik va yommonlik) urtasidagi qarama-qarshilikka asoslangan. Qadimiy Urta Osiyo san'at yodgorliklari antik davri kiyimlariining turlari bilan tanishishga boy imkoniyat beradi.

Yunon muarrihi Gerodotning ma'lumoti buyicha, hamma kadiladagi odamlar, hattoqi erkaklar ham, kiyimsiz yurishni uyatli deb hisoblashardi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi yunonsimon, skifsimon va hindsimon bo'lgandi. Ular ichki va ustki: elka, bel, bosh va oyoq kiyimlardan iborat edi. Ayollar kuylagining ikki turi uchrardi. Birinchisi – tunukasimon bichimlikukraagi tagida va belida belbog bilan boglangan tugri ko'ylak edi. Uning yoqa umizi dumaloq bo'lgan, oldi esa tomchisimon kesimli edi. Ko'ylakning ikkinchi turi yunon hitoniga uhshash edi. Buy baravar mato parchasini elkada tugnogich bilan biriktirishardi, etaging yon burchaklarini tugunga boglab kuyishardi. Bu ko'ylak belida yoki kukragini tagidan belbog bilan boglanardi. Ustki kiyimlari skifsimon kaftanlar va yopinchoqlar bo'lgan. Ko'ylak yoki kaftan ustidan yopinchoq kuyishardi. Ular buy baravar tugri turtburchak matodan qiliniib, elkaga tashlanardi, old uchlari esa tugnogich bilan biriktirilardi. Bel kiyimi – uzun, etikka kirgizilgan ishtonlar edi. Ular ko'ylakning tagidan kurinishi mumkin edi.

Bosh kiyimlari konussimon namatdaan qilingan kalpoqlar, yumshoq yassi shapkalar, sallasimon, tojsimon bosh kiyimlar va yopinchoqlar bo'lgan. Pricheskallari murakkab va hilma-hil bo'lgan. Urilgan sochlar turli usulda turmalangandi.

Bezak takinchoqlar: tojlar, ziraklar, tillakoshlar, grifna va boshqalar bo'lgan. Oyoq kiyimlari yumshoq etik edi, gohida, kunjining tepa kismi kaytarilishi mumkin edi.

Ishning bajarish tartibi:

1. Kostyum loyihalash jarayonida ishlatiladigan usullar haqida adabiyotlar va internet manbaalaridan ma'lumotlar y'igiladi
2. Yuqorida keltirilgan vositalarni qo'llab turli Kostyum yaratiladi.

3. Bajarilgan ijodiy ishlar rasmiylashtiriladi.

Topshiriq shakli.

Talabalar bajargan ijodiy ishlarini A4 formatda rasmiylashtiradi. Unda turli fakturali yuzalar ko'rsatiladi.

Nazorat shakli

Bilimlarni eskizni sifatiga, grafik vositalarni qo'llab va ishni sifatli bajarishini inobatga olgan holda baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati **Asosiy adabiyotlar**

1. З.Коблякова Е.Б. Лабораторный практикум по конструированию одежды с элементами САПР. – Москва, «Легпробытиздат», 1992 г. 320 с. Nywel Davies. Fashion Designers' Sketchbooks. United Kingdom, London, 2010
2. Zarida Zaman. New Fashion Designers' Sketchbooks. United Kingdom, London, 2011
3. Ермилова В.В. Композиция костюма. – М: Академия, 2003
4. Пармон Ф.М. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары – М: «Триада плюс», 2002

Qo'shimcha adabiyotlar:

5. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №1
6. Макавеева Н.С. Основы художественного проектирования костюма. Практикум. - М: Академия, 2008
7. Л.А. Сафина, Л.М. Тухбатулина, В.В. Хамматова Проектирование костюма. Ростов на Дону: Феникс, 2007
8. Nozilov D.A. O'rta Osiyo dizayni tarixidan. – Toshkent: "Ozbekiston", 1998
9. Xudoyberganov R. Rangshunoslik asoslari. –Toshkent, 2006

Internet saytlari

10. www.liveinternet.ru

11. www.book.style.ru

12. https://vk.com/topic-58171768_28943378

13. <http://www.liveinternet.ru/users/ggulsiay/post213500916/>

14. <http://modanews.ru/books>

15. <https://www.labirint.ru/books/325953/>

Mundarija

Kirish.....	
1. Turli plastik hususiyatli materiallardan shakl elementlarini hosil qilish.....	
2. Kompozision shakllantirish va kostyum proporsiyalarini o‘rganish.....	
3. Kompozision hususiyatlarini qo‘llab yangi model eskizlarini ishlab chiqish.....	
4. Turli kompozision vositalarni qo‘llab liboslar to‘plamini yaratish.....	
5. Turli uslubiy yechimdagi liboslar modellarini ishlab chiqish.....	
6. Tabiat shakllarini tranformatsiyalash usullaridan foydalanib kostyum shakllarini ishlab chiqish.....	
7. Kostyum loyihalash jarayonida ijodiy manbaa sifatida tarixiy va milliy kostyumlardan foydalanish.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati	

